

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-4>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**

доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Sabirova Umida</b> OLIY TA'LIM SIFATINI MONITORING QILISH MODELI.....	5
<b>2. Fayzieva Farogat</b> MA'LUMOTLAR TO'PLASH JARAYONI SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHI SIFATIDA.....	13
<b>3. Mardiyeva Malika</b> XX-XXI- ASRLARDA ISLOM MADANIYATIDAGI GENDER MUNOSABATLARI.....	23
<b>4. Махмудова Малика</b> ОПТИМИЗАЦИЯ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ ДЛЯ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ДОМАШНЕГО НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	30
<b>5. Tagaymutatova Gulchehra</b> RAQAMLI TEXNOLOGIYANING INNOVATSION OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI.....	38
<b>6. Shukurova Sevara</b> OIV EPIDEMIYASI BILAN KURASHDA KOMPLEKS YONDASHUV TIZIMI.....	44
<b>7. Razzakova Nargis</b> JAMIYATNI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING O'ZGARISH DINAMIKASI.....	51
<b>8. Samadov Shohzod</b> JAMIYATDA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUV RIVOJIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING AHAMIYATI (sotsiologik yondashuv).....	59
<b>9. Kadirov Mirsulton</b> IJTIMOIIY-MADANIY SOHADAGI MUAMMOLARNI HAL QILISHDA DAVLAT HOKIMIYATI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARI.....	66
<b>10. Kasimov Abdumavlon</b> MAHALLIY BUDJET IJROSI USTIDAN DEPUTALIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOIIY-SIYOSIY OMILLARI.....	80
<b>11. Usmonova Rohila</b> AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI.....	87
<b>12. Samadov Shohzod</b> YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALARI (Fuqarolik jamiyati institutlari misolida).....	95

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ


## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Kasimov Abdumavlon,**

O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

e-mail: kasimov750@mail.ru

### MAHALLIY BUDJET IJROSI USTIDAN DEPUTALIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14187686>

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mahalliy budjetlar ijrosi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy-siyosiy omillar tahlil etilgan. Tadqiqotda ushbu sohadagi mavjud tendensiyalar va muammolar haqida umumiy ma’lumot berilgan, shuningdek, deputatlik nazoratining samaradorligi va muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy jihatlar belgilab berilgan. Muallif deputatlarga ijtimoiy ishonch, ularning saylovchilar oldidagi mas’uliyati, shuningdek, siyosiy iroda va davlat institutlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi muhimligiga e’tibor qaratadi. Mahalliy darajada budjet resurslarini boshqarish jarayonida demokratiya va shaffoflikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi omillar ham muhokama qilinadi. Ushbu maqolada demokratik boshqaruvning zamonaviy chaqiriqlari va talablari sharoitida deputatlik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha foydali tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy-siyosiy omillar, budjet, ijtimoiy ishonch, deputatlik nazorati, siyosiy iroda.

**Касимов Абдумавлон,**

Научный сотрудник

Национального университета Узбекистана

e-mail: kasimov750@mail.ru

### СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ДЕПУТАТСКОГО КОНТРОЛЯ ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ МЕСТНОГО БЮДЖЕТА

#### АННОТАЦИЯ

Данная статья анализирует социально-политические факторы, влияющие на осуществление депутатского контроля за исполнением местного бюджета. Исследование представляет собой обзор современных тенденций и вызовов в этой области, а также выявляет основные аспекты, определяющие эффективность и успешность депутатского контроля. Автор обращает внимание на важность социального доверия к депутатам, их ответственности перед избирателями, а также политической воли и поддержки со стороны государственных институтов. Также обсуждаются факторы, способствующие укреплению демократии и прозрачности в процессе управления бюджетными ресурсами на местном уровне. В статье предлагаются соответствующие рекомендации для улучшения механизмов депутатского

контроля и повышения его эффективности в контексте современных вызовов и требований к демократическому управлению.

**Ключевые слова:** социально-политические факторы, бюджет, социальное доверие, парламентский контроль, политическая воля.

**Kasimov Abdumavlon,**  
Researcher of National University of Uzbekistan  
e-mail: kasimov750@mail.ru

## SOCIO-POLITICAL FACTORS OF DEPUTY CONTROL OVER THE EXECUTION OF THE LOCAL BUDGET

### ABSTRACT

This article analyzes the socio-political factors influencing the implementation of parliamentary control over the execution of the local budget. The study provides an overview of current trends and challenges in this area, and also identifies the main aspects that determine the effectiveness and success of parliamentary control. The author draws attention to the importance of social trust in deputies, their responsibility to voters, as well as political will and support from government institutions. Factors that contribute to strengthening democracy and transparency in the process of managing budgetary resources at the local level are also discussed. This article offers useful recommendations for improving the mechanisms of parliamentary control and increasing its effectiveness in the context of modern challenges and requirements for democratic governance.

**Keywords:** socio-political factors, budget, social trust, parliamentary control, political will.

### KIRISH

Mahalliy byudjetlar ijrosi ustidan deputatlik nazorati, joylardagi moliyaviy resurslarni boshqarish jarayonida shaffoflik, samaradorlik va mas'uliyat darajasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu nazorat jamiyat manfaatlarini himoya qilish, davlat mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish va resurslarni adolatli taqsimlashga yordam beradi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun ijtimoiy-siyosiy omillar, masalan, fuqarolarning iqtisodiy va huquqiy savodxonligi, jamiyatdagi ishtirok etish madaniyati, hamda davlat tashkilotlari va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro ishonch aloqalari muhim o'rin tutadi. Deputatlik nazorati orqali mahalliy darajada qabul qilinayotgan qarorlarning ijtimoiy ahamiyati va samaradorligi oshadi. Byudjet mablag'larining samarali va shaffof boshqarilishi, mahalliy kengashlar va aholi o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda va jamiyatda ishonch muhitini yaratishda ijobiy natijalar keltirishi mumkin. Hozirgi kunda jamiyat oldida byudjet mablag'larini samarali boshqarish, korrupsiya va moliyaviy qonunbuzarliklarga qarshi kurashish, deputatlarning mas'uliyatli va mustaqil qarorlar qabul qilishi uchun sharoit yaratish kabi muhim vazifalar mavjud. Ushbu maqola mahalliy byudjetlar ijrosi ustidan deputatlik nazoratining ahamiyatini, ijtimoiy-siyosiy omillarning mazkur jarayonga ta'sirini tahlil qilish, shuningdek, ushbu sohada zamonaviy jamiyatlar oldida turgan dolzarb muammolar va vazifalarni belgilashga qaratilgan [1].

### METODOLOGIYA

Mahalliy budjetlar ijrosi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-siyosiy omillar tahlil qilish jarayonida quyidagi sotsiologik, ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

- Qonuniy va me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish.
- Ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarni o'rganish.
- Publitsistik va jurnalistik so'rovlarni tahlil etish.
- Qiyosiy tahlil.
- Sistemalashtirish.
- Natijalarni umumlashtirish.

### ASOSIY QISM

Xalq deputatlari Kengashlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi hamkorlik, ayniqsa, hozirgi davrda jamiyatdagi turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda oxirgi yillarda ko'plab vakolat va mas'uliyatlarni markaziy hokimiyat organlaridan mahalliy hokimiyat organlariga va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalarga bosqichma-bosqich topshirish jarayoni davom etmoqda. Bu islohotlar mahalliy hokimiyatlarning aholi manfaatlarini himoya qilishdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, hududlardagi hayot sifatini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Mahalliy hokimiyat organlari – xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikni samarali tashkil etish muhim vazifalardan biridir. Bu hamkorlik orqali mahalliy masalalarni aholi bilan hamkorlikda hal qilish imkoni yaratiladi. Xalq deputatlari Kengashlari deputatlari mahallalar bilan yaqin aloqa o'rnatish orqali joylardagi ijtimoiy va iqtisodiy ahvolni yaxshilash uchun qo'shimcha mexanizmlarga ega bo'ladi. Jumladan, kommunal xo'jalik, obodonlashtirish, aholi bandligini ta'minlash kabi sohalaridagi muammolarni hal etishda mahallalarning vakolatlari qanday amalga oshirilayotganini nazorat qilish va aholi manfaatlarini himoya qilishdagi mas'uliyatlarini oshirishda yordam beradi.

Xalq deputatlari Kengashlari deputatlari mahallalar bilan yaqin aloqa o'rnatib, joylardagi ijtimoiy muammolar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishadi. Shuningdek, ular ushbu muammolarni aniqlash va hal qilish uchun zarur choralarni ko'rish imkoniga ham ega. Bu jarayonda deputatlarning faoliyati nafaqat mahalliy darajadagi muammolarni yechishda samarali bo'ladi, balki aholining deputatlarga va umuman davlatga nisbatan ishonchini mustahkamlashga ham yordam beradi. Bu holatda mahalla aholisi deputatlarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilishi mumkin, chunki ular mahallalardagi muammolar va masalalarni yaxshi tushunadi. Deputatlar ushbu murojaatlarga javob qaytarib, ularni muhokamaga kiritish yoki tegishli organlarga deputat so'rovlari yo'llash orqali hal qilish choralari ko'radi.

Bundan tashqari, xalq deputatlari Kengashi deputatlari mahallalarda amaliy ishtirok etib, mahalliy aholining turli muammolari bilan bog'liq masalalarni hal etish orqali ularga yordam beradi. Bunday amaliy ishlardagi ishtiroki, albatta, aholi tomonidan ijobiy qabul qilinadi va ularning davlatga nisbatan ishonchini oshiradi. Aholining davlatga ishonchi, o'z navbatida, jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy muvozanatni saqlashda katta ahamiyatga ega. Shu sababli, mahalliy darajada davlat boshqaruvi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, Kengashlar mahallalar bilan yaqin hamkorlikda bo'lish orqali ularning taklif va muammolarini yaxshiroq tushunadi, bu esa mahallalarning faoliyatidagi muammolarni yechishda katta yordam beradi. Masalan, aholi bandligini ta'minlash, infrastruktura va kommunal xizmatlarni yaxshilash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish kabi masalalarda mahallalarning taklif va mulohazalari muhim ahamiyatga ega. Bu bilan mahallalar o'z hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda ishtirok etib, ularning faoliyati joylardagi umumiy rivojlanishga yordam beradi.

Shuningdek, xalq deputatlari Kengashlarining o'z faoliyatini OAV orqali yoritib borishi aholi orasida deputatlarga bo'lgan ishonchni oshiradi. Bugungi kunda tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining aksariyati o'z faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni aholiga yetkazish uchun maxsus veb-saytlarga ega emas. Bu esa deputatlar faoliyati haqidagi ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazishda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Aholi o'z vakillari olib borayotgan ishlar haqida xabardor bo'lmasa, deputatlarning ishiga nisbatan ishonchsizlik yuzaga kelishi mumkin. Bunda OAVning faol ishtiroki, shuningdek, veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda maxsus sahifalar orqali deputatlarning faoliyati haqidagi ma'lumotlarni yoritish muhim rol o'ynaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va barcha viloyatlar, shuningdek, Toshkent shahar hokimliklari o'z veb-saytlariga ega bo'lib, ularda deputatlarning faoliyati haqida ma'lumotlar joylashtirilmoqda. Bu ma'lumotlar deputatlarning ish faoliyati va mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilishdagi sa'y-harakatlari haqidagi tushunchani keng jamoatchilikka yetkazishda katta ahamiyatga ega. Bu borada yanada samarali natijalarga erishish uchun xalq deputatlari Kengashlari o'z veb-saytlarini yaratishlari, ularda o'z faoliyati to'g'risidagi yangiliklarni joylashtirib borishlari va

deputatlar korpusi tomonidan olib borilayotgan ishlar haqida axborot yetkazishga ko'proq e'tibor qaratishlari zarur.

Shunday qilib, mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, mahalliy budjetlar ijrosi ustidan nazoratni samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ijtimoiy ishonch, mahalliy boshqaruv tizimining shaffofligi va aholining bevosita ishtirok etishi alohida ahamiyatga ega. Deputatlar va mahallalar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash orqali jamiyatda barqarorlik va samaradorlikni ta'minlash mumkin. Bu yo'nalishdagi samarali ishlar mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va joriy qilishni taqozo etadi. Bunday dasturlar mahalliy budjetlarning ijrosini nazorat qilish, deputatlik faoliyati haqidagi axborotlarni jamoatchilikka yetkazish, shuningdek, mahallalar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi

Hozirgi vaqtda ko'plab vakolat va vazifalarni markaziy organlardan mahalliy hokimiyat organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mahallalarga bosqichmabosqich topshirish jarayoni davom etmoqda. Shuning uchun mahalliy hokimiyat organlari bo'lmish xalq deputatlari Kengashi bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining hamkorligini yo'lga qo'yish deputatlar korpusining ishidagi muhim yo'nalishdir [2]. Xalq deputatlari Kengashi deputatining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari bilan yaqin aloqasi unga nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy sohalar, kommunal xo'jalik, obodonlashtirish, aholi bandligi va aholining manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalarni hal etish borasida mahallalarga berilgan vakolatlar qanday amalga oshirilayotganidan boxabar bo'lish, balki o'zi deputat so'rovi yuborish yoki xalq deputatlari Kengashi sessiyalari va uning doimiy komissiyalari majlislari muhokamasiga kiritish orqali hal eta olishi mumkin bo'lgan muammoli masalalarni aniqlashga ham imkon beradi. O'z navbatida, xalq deputatlari Kengashi deputatining o'z saylov okrugi hududida joylashgan mahallalar hayotida amaliy ishtiroki aholining shaxsan unga va umuman davlatga nisbatan ishonchi yanada ortishiga imkon yaratadi [3].

Bu vazifalarni hal qilishga xalq deputatlari Kengashi deputatlarining faoliyati ham yo'naltirilishi lozim [4]. Shuningdek, ular tegishli qarorlar ishlab chiqish orqali mahallaning mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan yanada yaqinroq hamkorlikda bo'lishini qo'llab-quvvatlashlari va ta'minlashlari zarur. Bu jarayon qaytar aloqani ta'minlab, ijtimoiy jihatdan deputatlarning qo'llab-quvvatlanishiga yo'l ochadi, ularning mavqeini mahalliy boshqaruv bosqichlarida oshirib beradi.

Xalq deputatlari Kengashi faoliyati sohasida OAVda yoritib borishga harakat qilinayotganligiga qaramasdan, bugungi kunda tuman va shahar xalq deputatlarining hech bir Kengashi xalq deputatlari Kengashining tuzilishi, deputatlari, ular olib borayotgan ishlar to'g'risidagi va boshqa ma'lumotlarni joylashtirishi mumkin bo'lgan o'zining alohida veb-saytiga ega emas [5]. Ammo Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, barcha viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining o'z veb-saytlari ishlab turibdi. Mazkur jarayonda xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari faoliyati to'g'risidagi axborotlar viloyat hokimliklari veb-saytlari sahifalariga joylashtirib borilayotganiga guvoh bo'ldik.

Viloyat, tuman va shahar gazetalarida xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining ishi haqidagi xabarlarni e'lon qilish borasida ham xuddi shunday ahvolni ko'rish mumkin. Davriy nashrlarda ko'pincha xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalari to'g'risida qisqa xabarlar e'lon qilinadi, xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalarining ishi to'g'risidagi xabarlar ham juda kam. Aksariyat viloyat, tuman va shahar gazetalarining bosh muharrirlari faollar safiga kiradi va shu sababli xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalarida qatnashadi, ammo negadir shu sessiyalardagi masalalar deyarli yoritilmay qolmoqda [6, 7].

Xalq deputatlari Kengashining deputatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng dolzarb masalalari bo'yicha intervyu bergan yoki o'z fikrini bildirgan axborot yondashuvidagi materiallar kamroq. Ommaviy axborot vositalarida xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalarida va ularning doimiy komissiyalari majlislarida qabul qilinadigan qarorlar ham kam hollarda e'lon qilinadi [8].

Bundan, joylarda aholining xalq deputatlari Kengashlarining ishi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishishini ta'minlashning samarali usullari hanuz joriy etilmagan, degan xulosaga keldik.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidan farqli o'laroq, xalq deputatlari Kengashlari, mahalliy gazetalarni hisobga olmaganda, viloyat, tuman va shahar Kengashlari sessiyalarining qarorlarini e'lon qilib borish mumkin bo'lgan o'z matbuot organiga shu paytgacha ega emas. Bu ham deputatlar korpusi olib borayotgan ishlardan aholini xabardor qilishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biridir [9]. Bundan o'n yillar avval xalq deputatlari viloyat Kengashlari sessiyalarining materiallari bir martalik alohida risolalar (broshyuralar) ko'rinishida tarqatilar edi. Vaqt o'tishi bilan raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bu kabi broshyuralarga ehtiyojni kamaytirgan bo'lsa-da, bu ma'lumotlarning elektron shakllari ham OAV da kam ko'rinyapti. Balki xalq deputatlari har bir Kengashida hokimiyat vakillik organlari va ommaviy axborot vositalarining o'zaro aloqalarini kuchaytirish bo'yicha choralar maxsus dasturini ishlab chiqish va qabul qilish mavjud holatni tuzatishga imkon berishi mumkin [10].

Mahalliy budjetning ijrosi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish uning samaradorligi va muvaffaqiyatini belgilab beruvchi qator ijtimoiy-siyosiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Keling, ushbu omillarni batafsil ko'rib chiqaylik.

Xalqning deputatlarga ishonchi. Muvaffaqiyatli deputatlik nazoratining asosiy jihatlaridan biri jamiyatning deputatlarga bo'lgan ishonchidir. Agar jamoatchilik o'z vakillariga tayanib, ularning halolligi, o'z vazifalarini halol bajarishiga ishonrsa, deputatlik nazorati imkoniyati sezilarli darajada oshadi. Ishonchning etishmasligi jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmasligi va faol ishtirok etishi tufayli samarali nazoratga to'sqinlik qilishi mumkin [11].

Siyosiy iroda va qo'llab-quvvatlash. Budjet ijrosi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish siyosiy iroda va davlat institutlarining ko'magiga ham bog'liq. Hukumat budjet mablag'larini boshqarishda shaffoflik va mas'uliyatdan manfaatdor bo'lsa, deputatlik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlarini faol qo'llab-quvvatlaydi [12].

Demokratiyaning rivojlanish darajasi. Deputatlik nazoratini amalga oshirishda jamiyatdagi demokratiya darajasi muhim rol o'ynaydi. Ko'proq demokratik jamiyatlarda jamoatchilik o'z fikrini bildirish va deputatlar harakatlarini kuzatish imkoniyatiga ega. Shunday qilib, demokratik institutlarning rivojlanishi deputatlik nazoratini kuchaytirishga xizmat qilmoqda [13].

Jamoatchilik ishtiroki va faolligi. Deputatlik nazorati jarayonida jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. Deputatlar faoliyatini, budjet ijrosini monitoring qilish va baholashga jamoatchilik qanchalik faol jalb etilsa, bu nazorat shunchalik samarali bo'ladi [14].

Axborotning shaffofligi va mavjudligi. Deputatlik nazoratini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mahalliy budjetning holati va ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqligi zarur. Aholining budjet mablag'larining sarflanishi va uning ijrosi natijalari to'g'risida ishonchli axborot olish imkoniyati bo'lishi kerak [15, 16].

Shu o'rinda, 2024 yilgi saylov jarayonlari hamda natijalarini misol sifatida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq. O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi kuni 15 027 529 nafar saylovchi ovoz berdi. Bu haqda Markaziy saylov komissiyasi (MSK) raisi Zayniddin Nizomxo'jayev brifingda ma'lum qildi.

Brifingda parlament saylovining dastlabki natijalari e'lon qilindi.

Demak, respublika bo'ylab jami 19 944 859 ming saylovchi ro'yhatga olingan bo'lsa, ulardan 15 027 529 nafari (74,72 %) ovoz berish jarayonida ishtirok etdi. Xorijda ovoz berganlar soni 140 388 nafarga teng bo'ldi.

MSK raisi "Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida 7 foiz ovozini olgan siyosiy partiya belgilangan tartibda mandatga ega bo'ladi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, yagona saylov okrugi bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga O'zLiDeP 5 mln 194 41 ta yoki 34,75% ovoz to'pladi. Va taqsimotga ko'ra 26 ta deputatlik o'rniga ega bo'ldi", — deya ta'kidladi [17].

Yagona saylov okrugi bo'yicha natijalar:

O'zLiDeP – 34,75% (26 ta o'rin);

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi – 18,82% (14 ta o‘rin);

Xalq demokratik partiyasi – 17,11% (13 ta o‘rin);

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi – 16,20% (12 ta o‘rin);

Ekologik partiya – 13,12% (10 ta o‘rin).

Nizomxo‘jayevning aniqlik kiritishicha, “O‘zbekiston “Milliy tiklanish” partiyasi 2 mln 812 493 ovoz to‘pladi va 14 ta deputatlik o‘rniga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Ekologik partiyasi 1 mln 960 ming 764 ta ovoz to‘pladi va 10 ta deputatlik o‘rniga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi 2 mln 558 ming 16 ta ovoz to‘pladi va 13 ta deputatlik o‘rniga ega bo‘ldi. “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 2 mln 420 ming 850 ta ovoz to‘pladi va 12 ta deputatlik o‘rniga ega bo‘ldi [17].”

Bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha Qonunchilik palatasiga saylangan 75 nafar deputatlar tarkibining partiyaviylik mansubligi bo‘yicha O‘zLiDeP – 38 nafar, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi – 15 nafar, Xalq demokratik partiyasi – 7 ta nafar, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi – 9 ta nafar, Ekologik partiya – 6 nafar deputat etib saylangan [17].

Demak, mahalliy budjetlar ijrosi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirishda ijtimoiy-siyosiy omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Deputatlar, jamiyat va davlat institutlarining o‘zaro hamkorligi joylarda moliyaviy resurslarning shaffof, mas‘uliyatli va samarali boshqaruvini ta‘minlashning asosiy elementi hisoblanadi.

### XULOSA

O‘zbekiston zamonaviy jamiyatida mahalliy budjetlar ijrosi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirishda ijtimoiy-siyosiy omillar muhim o‘rin tutadi. Ushbu omillarni tahlil qilishda nazoratning samaradorligi va samaradorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan bir nechta asosiy fikrlarni aniqlash mumkin. Birinchidan, xalqning deputatlarga ishonchi asosiy jihat bo‘lib qolmoqda. Agar jamoatchilik o‘z vakillarining halolligi va mas‘uliyatiga ishonsa, deputatlik nazoratini muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimoli sezilarli darajada oshadi. Bu ishonchni mustahkamlash uchun deputatlar va saylovchilar o‘rtasidagi faol hamkorlik, ular faoliyatida doimiy fikr-mulohazalar va ochiqlik zarur.

Bundan tashqari, deputatlik nazoratini muvaffaqiyatli amalga oshirishda siyosiy iroda va davlat institutlarining ko‘magi katta rol o‘ynaydi. Demokratiya va boshqaruvda shaffoflikni mustahkamlashga qaratilgan siyosiy islohotlar deputatlik nazoratini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishga xizmat qilmoqda. Demokratiyaning rivojlanish darajasi ham deputatlik nazorati samaradorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Demokratik jamiyatda jamoatchilik o‘z fikrini bildirish, deputatlar harakatini nazorat qilish imkoniyatlari kengayadi. Bu jamoatchilik faolligini kuchaytirish va budjet mablag‘larini boshqarishda shaffoflikni oshirishga xizmat qilmoqda. Jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki deputatlik nazoratini muvaffaqiyatli amalga oshirishning ajralmas qismidir. Deputatlar faoliyatini monitoring qilish va baholashda, shuningdek, budjet mablag‘larining sarflanishini nazorat qilishda jamoatchilik faol ishtirok etishi zarur. Nihoyat, mahalliy budjetning holati va ijrosi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning shaffofligi va mavjudligi deputatlik nazoratini samarali amalga oshirishning asosiy omillari hisoblanadi. Aholining budjetdan mablag‘larning sarflanishi va uning ijrosi natijalari to‘g‘risida ishonchli axborot olish imkoniyatiga ega bo‘lishi, bu esa deputatlar va umuman, davlat institutlariga ishonch darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mahalliy budjetlar ijrosi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirishda ijtimoiy-siyosiy omillar hal qiluvchi o‘rin tutadi. Deputatlar, jamiyat va davlat institutlarining muvaffaqiyatli o‘zaro hamkorligi joylarda moliyaviy resurslarning shaffof, mas‘uliyatli va samarali boshqarilishini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Shu bois, mazkur ijtimoiy-siyosiy omillarni hisobga olgan holda deputatlik nazoratini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish hamda ularni kuchaytirish va qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rishga harakat qilish zarur.

### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Матибаев Т. О новых подходах к активизации деятельности местных представительных органов власти //Fuqarolik Jamiyati. Гражданское общество. – 2018. – Т. 15. – №. 3. – С. 65-68.

2. Ким Ф.В., Хасанов Б.Ф. Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгашлари, уларнинг доимий комиссиялари ҳамда маҳаллий ҳокимият вакиллик органлари депутатлари фаолиятини ташкил этишнинг айрим жиҳатлари бўйича услубий тавсиялар. Амалий қўлланма. – Тошкент: 2012. – 192 б.
3. Халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгашининг намунавий регламенти ҳамда Халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгашининг доимий Комиссиялари тўғрисидаги Намунавий Низомни тасдиқлаш ҳақида, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг қарори, 31.07.2021 йилдаги СҚ-360-IV-сон, <https://lex.uz/docs/5578238>.
4. Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгаш депутатининг мақоми тўғрисида, Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.02.2021 й., 03/21/671/0093-сон, <https://lex.uz/ru/docs/436950>
5. Ким Ф.В., Хасанов Б.Ф. Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгашлари, уларнинг доимий комиссиялари ҳамда маҳаллий ҳокимият вакиллик органлари депутатлари фаолиятини ташкил этишнинг айрим жиҳатлари бўйича услубий тавсиялар. Амалий қўлланма. – Тошкент: 2012. – 192 б.
6. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет Кодекси. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон, <https://lex.uz/acts/2304138>
7. Акилов А.Р., Порядок и процедура проведения парламентских мероприятий/ Практическое пособие – Ташкент: 2020. – С.38.
8. Совершенствование деятельности и повышение роли местных Кенгашей народных депутатов, Аналитический доклад ООН. – Ташкент, 2015.
9. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Ўзбекистондаги Тараққиёт дастури, 2012.
10. Ким Ф.В., Хасанов Б.Ф. Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгашлари, уларнинг доимий комиссиялари ҳамда маҳаллий ҳокимият вакиллик органлари депутатлари фаолиятини ташкил этишнинг айрим жиҳатлари бўйича услубий тавсиялар. Амалий қўлланма. – Тошкент: 2012. – 192 б.
11. Акилов А.Р. Порядок и процедура проведения парламентских мероприятий/ Практическое пособие. – Ташкент: 2020. – С.38.
12. Совершенствование деятельности и повышение роли местных Кенгашей народных депутатов, Аналитический доклад ООН, – Ташкент, 2015.
13. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Ўзбекистондаги Тараққиёт дастури, 2012.
14. Матибаев Т. О новых подходах к активизации деятельности местных представительных органов власти //Fuqarolik Jamiyati. Гражданское общество. – 2018. – Т. 15. – №. 3. – С. 65-68.
15. Нодирхонова Н. Проблемы противодействия коррупции в банковско-финансовой системе Республики Узбекистан и пути их решения: правовой анализ //Международный журнал консенсус. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
16. Есипов В.М. Организационно-экономический механизм противодействия криминальной экономике на этапе проведения рыночных реформ : дис. – М.: Акад. упр. МВД.
17. Parlament saylovining dastlabki natijalari e’lon qilindi – tafsilotlar. 28.10.2024, <https://sputniknews.uz/20241028/parlament-saylov-dastlabki-natijalar-46343861.html>.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000